

## Korxonalar va tashkilotlar

(Fermer va dehqon xo`jaliklardan tashqari)  
(2019 yil yanvar)

2019 yilning yanvar oyida Viloyatda 1099 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 865 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3375 ta (21,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19161 tani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar  
20145 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar  
19161 ta**

**Yangi tashkil etilganlar  
1099 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes  
sub'ektlari soni 15836ta bo'lib,  
yil davomida 1073 ta yangi tashkil  
etildi.**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi  
166 ta korxonalar faoliyat  
ko'rsatmoqda.**

**O'tgan yilga nisbatan 46 ta korxona va tashkilotlar kam tugatilgan**



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2069	1914	51
	Sanoat	3020	2888	273
	Qurilish	2087	1976	77
	Savdo	4577	4316	495
	Tashish va saqlash	1253	1185	40
	Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	1327	1263	63
	Axborot va aloqa	224	209	5
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	512	505	10
	Boshqa turlari	5076	4905	85




- ✚ **Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**
- ✚ (Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2019 yilning 1 yanvar holatiga 20145 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,7% savdo, 15,0 % sanoat, 10,3 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,6% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,2 % tashish va saqlash, 2,5 % sog'liqni saqlash

va ijtimoiy xizmatlar , 1,1 %axborot va aloqa hamda 25,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (6417ta), G'ijduvon(2125 ta), Romitan(1540 ta) va Buxoro (1517 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Kogon shahri (721 ta), Olot (674 ta) hamda Qorovulbozor(378ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.

01.02.2017 yil

**16056**

01.02.2018 yil

**16677**

01.02.2019 yil

**20145**




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar. (Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **19161** tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3375ta (21,4 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 % savdo, 15,1 % sanoat, 10,3 % qurilish, 10,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,2 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,6 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari,)**



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarsoni eng ko'pi Buxoro shahri(6251 ta), G'ijduvon (1959 ta), Romitan (1499 ta), Buxoro (1368 ta) va Jondor (1287 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qorovulbozor (364 ta), Olot (589 ta) hamda Kogon sh. (700 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

### Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

01.02.2017 y.

- 14981ta

01.02.2018 y.

- 15786ta

01.02.2019 y.

- 19161ta




## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019 yil yanvaroyida 1099 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,7 % baravarga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Buxoro shahri (329 ta), G'ijduvon (100 ta), Romitan (90 ta) va Jondor(83ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Qorovulbozor (22 ta), Peshku(44 ta) hamda Kogon (49ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (495 ta), sanoat (273 ta), qurilish (77 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (63ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (51 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (5 ta) sog'liqni saqlashvajtimoiy xizmatlar (10ta), hamda tashish va saqlash (40 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	01.02.2017 y.		01.02.2018 y.		01.02.2019 y.	
	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %	Umumiy soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>246</b>	<b>100</b>	<b>234</b>	<b>100</b>	<b>1099</b>	<b>100</b>
Savdo	35	14,2	38	16,2	495	45,0
Sanoat	56	22,8	46	19,7	273	24,9
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	64	26,0	33	14,1	51	4,6
Qurilish	33	13,4	41	17,5	77	7,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	5,7	26	11,1	63	5,7
Tashish va saqlash	16	6,5	5	2,1	40	3,6
Axborot va aloqa	6	2,4	3	1,3	5	0,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	2,9	13	5,6	10	1,0
Boshqa turlari	15	6,1	29	12,4	85	7,7

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidasoni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillarkesimida soni, birlikda




## TIJORAT KORXONALARI.



(Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga 15965ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3216ta, oilaviy korxonalar – 1069 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11316ta va boshqalar 364tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'ssatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 166 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga yoki 74,7 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Koreya Respublikalari hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 121 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Shahar va tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (87 ta yokijamidagi ulushi 52,4%), Peshkutumani(13 ta yoki7,9 %) va Kogon tumani(11 ta yoki 6,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalar Olot tumani (1 ta yoki 0,6 %), Qorovulbozor tumani(2 ta yoki1,3 %), Shofirkon tumani

(3 ta yoki 1,8 %), G'ijduvon tumani(4 ta yoki 2,4 %) va Qo'rako'l tumani(5 ta yoki 3,0 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 82tani (49,4 %), savdoda 30 tani (18,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 16 tani (9,7 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 2 tani (1,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 tami (1,2 %), qurilish 8 ta (4,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13 tani (7,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 tani (7,8 %) tashkil qilgan. Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlashda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarsoni, birlikda**




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvaroyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 12tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan.

Bunda, Turkmaniston – 4 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta,Qozoqiston va Koreya Respublikalari ishtirokida – 1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019 yil yanvar oyi davomida Eron Islom Respublikasi rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimida ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo(5 ta), sanoat(3 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3ta) va qurilish(1 ta) sohalariga to'gri keladi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichao'sish dinamikasi,birlikda

	2018 yil yanvar		2019 yil yanvar	
	Jami	Umumiyligi soniga nisbatan %	Jami	Umumiyligi soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	1	50,0	3	25,0
<b>Savdo</b>	0	0	5	41,7
<b>Qurilish</b>	0	0	1	8,3
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	1	50,0	3	25,0
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	0	0	0	0
<b>Axborot va aloqa</b>	0	0	0	0
<b>Tashish va saqlash</b>	0	0	0	0
<b>Sog'liqniisaqlashvaijtimoiyxizmatlarko'rsatish</b>	0	0	0	0
<b>Boshqa turlari</b>	0	0	0	0




### Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

(Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)

2019 yil 1 fevral holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15836tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 fevralholatiga qaraganda 23,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 5401tasi (34,1 %)

Buxoroshahri, 1622tasi (10,2 %) G'ijduvon, 1269tasi (8,0 %) Romitan hamda 1151tasi (7,3 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'gri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15836ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4283tasi (27,1 %) – savdo, 2851tasi (18,0 %) - sanoat, 1954tasi (12,4 %) - qurilish, 1869tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1255tasi (7,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1175tasi (7,4 %) - tashish va saqlash, 428 tasi (2,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 195 tasi (1,2 %) - axborot va aloqa sohasi,

shuningdek 1826 mingtasi (11,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'riniib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)**



2019 yil yanvaroyida 1073 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % baravarga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (317 ta), G'ijduvon (99 ta), Romitan (89 ta) va Jondortumani (82 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Qorovulbozor (22 ta), Peshku (44 ta) hamda Kogon (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(Fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (495 ta), sanoatda (272 ta), qishloq, qurilishda(77 ta) va o'rmon va baliq xo'jaligida (51ta)tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (5 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta),hamda tashish va saqlashda (40 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar soni



Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 fevral holatiga 1119tani tashkil etib, ulardan 1069 tasi yoki

95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 51,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,5 % yoki 326 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 29,6 % yoki 316 tasi sanoat, 16,7 % yoki 178 tasi savdo, 11,6 % yoki 124 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 2,5 % yoki 27 tasi sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 12 tasi qurilish, 0,8 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 6,5 % yoki 70 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamdasanoateng kami esaaxborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxona va tashkilotlar

(Fermer va dehqon xo`jaliklardan tashqari)

2019 yilning yanvar oyida jami 46 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.


Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan – 46 taga yoki 50,0 % ga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoxda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2018 yil yanvaryida 92 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, 2019 yilning yanvarda ushbu ko'rsatkich 46 tani tashkil etgan.*

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 46 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 7 tasi (15,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6tasi (13,0 %) savdo,6 tasi (13,0 %) sanoat, 6 tasi (13,0 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 3 tasi (6,5 %) tashish va saqlashda, 2 tasi (4,4 %) qurilish, 1 tasi (2,2 %) axborot va aloqada, 1 tasi (2,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 14 tasi (30,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo,qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

**Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yichasoni**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

	01.02.2018 yil		01.02.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiganis batan, % da	Farqi,(+,- )
<b>Jami</b>	<b>92</b>	<b>100,0</b>	<b>46</b>	<b>100,0</b>	<b>-46</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqxo'jaligi	10	10,9	6	13,0	-4
Sanoat	17	18,5	6	13,0	-11
qurilish	12	13,0	2	4,4	-10
savdo	25	27,2	6	13,0	-19
tashish va saqlash	9	9,8	3	6,5	-6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	11,9	7	15,2	-4
axborot va aloqa	2	2,2	1	2,2	-1
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	2,2	1	2,2	-1
boshqa turlari	4	4,3	14	30,5	+10

## Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar oyida 38 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -54taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 7 tasi (18,4 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6 tasi (15,8 %) sanoat, 5tasi (13,2%) savdo, 5 tasi (13,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 3 tasi (7,9 %) tashish va saqlashda, 2 tasi (5,3 %) qurilishda, 1 tasi (2,6 %) axborot va aloqada, 1 tasi (2,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 8 tasi (21,0 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Buxoro shahrida -11ta, Jondorda - 9 ta, Buxoro tumanida – 7 ta, Romitan hamda Vobkenttumanlarida - 6 ta kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**  
**Тел:71-230-83-20 (21)**